XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING QARORI

Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 238-uy. 190500, tel.: (+99876) 41-31-400

2022 - yil 2 - dekabr VI-64-180-8-111-K/22 Denov tuman hokimligi

Denov tumanidagi qabristonlar nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 30-maydagi 01-05/103-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2022-yil 6-iyuldagi 08-05736-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman komissiyasining 2022-yil 30-maydagi 01-05/103-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2022-yil 6-iyuldagi 08-05736-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi ma’qullansin.

2. Tumandagi qabristonlar nomlari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo‘limi (U.Aliqulov), tuman qurilish bo‘limi (A.Elmurodov) va davlat xizmatlari markazi (O.Xolmirzayev) birgalikda qabristonlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (A.Elmurodov) hududlardagi qabristonlar nomlarini yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tumandagi qabristonlar ro‘yxati Kengash qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

6. Ushbu qarorni tuman hokimligi Axborot xizmati (F.To‘rayeva) tuman hokimligining ijtimoiy saytida va “Chag‘oniyon” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kirsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi O‘.Rajabov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **A.Allamuradov**

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2022 yil 2 dekabrdagi
VI-64-180-8-111-K/22-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi tomonidan ekspertiza berilgan Denov tumanidagi mavjud qabristonlar

ro‘yxati

T.P	Geogtafik obyektni turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
Qabristonlar					
1	Qabriston	Buyuk zamin MFY	Nomsiz	Xo‘jaxalfa	**Xo‘jaxalfa**- Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Qabriston	Buyuk zamin MFY	Nomsiz	G‘aribmozor	**G‘aribmozor**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	Qabriston	Yohlik MFY	Nomsiz	Allamjahon	**Allamjahon**- Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	Qabriston	Qaytmas MFY	Nomsiz	Haydarobod	**Haydarobod**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5	Qabriston	Chuqurqishloq MFY	Nomsiz	Chorgulbibi	**Chorgulbibi**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6	Qabriston	Bo‘ston MFY	Nomsiz	Imom al-Buxoriy	**Imom al-Buxoriy**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7	Qabriston	Ibn Sino MFY	Nomsiz	Xotira	**Xotira**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8	Qabriston	Bahoriston MFY	Nomsiz	Musaxon eshon	**Musaxon eshon**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9	Qabriston	Istiqbol yulduzi MFY	Nomsiz	Qo‘qonibobo	**Qo‘qonibobo**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10	Qabriston	Zarafshon MFY	Nomsiz	Miyon Ikromiddin	**Miyon Ikromiddin**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

11	Qabriston	Minora MFY	Nomsiz	Minora	**Minora**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12	Qabriston	Gulobod MFY	Nomsiz	Gulobod	Gulobod -Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13	Qabriston	Do‘tlik MFY	Nomsiz	Yurchi qo'rg'oni	Yurchi qo'rg'oni-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14	Qabriston	Tasmasoy MFY	Nomsiz	Obodmanzil	**Obodmanzil**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15	Qabriston	Ko‘hsor MFY	Nomsiz	Ho'ja barku	**Ho'ja barku**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16	Qabriston	Sanoatchilik MFY	Nomsiz	Manguhayot	**Manguhayot**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
17	Qabriston	Sebzor MFY	Nomsiz	Sebzor	**Sebzor**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18	Qabriston	Charmasor MFY	Nomsiz	Shayx	**Shayx**-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.